

SOLIQ MA'MURCHILIGIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Yusupov Farruxbek Farxodovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Maqolada tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning aniq maqsad va chegaralarini belgilash, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yangi mahsulot va xizmat turlarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ular uchun tartibga solish yukini kamaytirish, mavzusida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq, budget siyosati, foyda solig'i, budget, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik sub'ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish:

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotini modernizatsiyalash, soliq tizimidagi iqtisodiy islohotlarni yanada takomillashtirish va uni amalga oshirish, soliqlarning tartibga solish funksiyasini kuchaytirish, kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish va uning iqtisodiyotda tutgan o'rnini yanada mustahkamlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim masalalariga aylanib bormoqda.

Xulosa va takliflar

Jahon amaliyotidan ko'rinish turibdiki, coliq ma'muriyatchiligin raqamlashtirish asosida qonunchilikka riosa etish va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, ko'proq daromadlarni samaraliroq yig'ish, shaffoflik va soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash hamda katta ma'lumotlar oqimini moslashtirishga erishish mumkin. Bugungi kunda soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarida soliqlar tuzilmasini optimallashtirish, ularni undirish, soliq hisobi va hisobotini yuritish mexanizmini takomillashtirish, soliq to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq to'lanishi, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligidagi belgilangan huquq va majburiyatlariga riosa etilishini nazorat qilish, soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, natijalarni yig'ish va tahlil qilish, soliqqa tortish jarayonining barcha

ishtirokchilarining soliq munosabatlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha keng chora-tadbirlar amalga oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Davlat ulushi mavjud barcha yuridik shaxslarning va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan tashkilotlar muassisligida tuzilgan yuridik shaxslarning elektron ro‘yxatini shakllantirish hamda mazkur platformadan hamkorlikda foydalanish orqali dividendlar va davlat korxonalarining sof foydasidan ajratmalarni hisoblash va undirish yuzasidan o‘zaro axborot almashish tizimini joriy qilish hamda soliq organlarida mavjud ma’lumotlar asosida soliq va statistik hisobotlarni avtomatik tarzda solishtirish tartibini joriy etilishi, statistik hisobotning alohida ustunlarini soliq va moliyaviy hisobotlarida ko‘rsatilgan ma’lumotlari asosida avtomatik ravishda to‘ldirishga o‘tkazish.

Vazirlar Mahqamasining 2022-yil 2-apreldagi 148 va 149-sodan qarorlariga muvofiq maishiy texnika (2022 yil 15 aprel) va dori vositalarni raqamli markirovkalash tizimlarini joriy qilish tadbirlari davom etmoqda.

71 ta ishlab chiqaruvchi va 96 ta import qiluvchi korxonalar tomonidan jami 2,1 mln dona markirovkalangan mahsulotlar savdoga chiqarilgan.

Shuningdek, joriy yil 1 sentyabr holatiga 6 ta mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan 50,6 ming dona markirovkalangan dori vositalari ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari, soliq hisobotlarini avtomatlashtirish (Xorazm tajribasi va boshqalar)

a) Kadastr agentligi ma’lumotlari jamlanganligi hamda “E-imtiyoz” dasturi orqali (kadastr raqami, er maydoni, toifasi, soliq stavkasi, huquq yangidan paydo bo‘lgan yoki bekor qilingan sana, imtiyozli hudud) respublika bo‘yicha 66,5 mingta noqishloq er solig‘i to‘lovchilari hisobotlari to‘liq avtomatlashtirilgan bo‘lib, 2,8 mingtasi (4,2%) mustaqil taqdim etgan.

Ma’lumot uchun: respublika bo‘yicha bu ko‘rsatkich 97 foizni tashkil etib, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan lalmikor va yaylov zonada joylashgan er uchastkalariga ega 1 875 ta (3 %) soliq to‘lovchilar uchun interaktiv xizmat yaratilmoqda.

b) Elektron hisobvaraqt-fakturalar, onlayn nazorat kassa texnikasi, marketpleys va bojxona deklaratsiyalari integratsiyalashuvi natijasida soliq to‘lovchilarning chegiriladigan daromadlari va turli stavkalar qo‘llanishi inobatga olinmagan holda aylanmadan olinadigan soliq hisoboti respublika bo‘yicha 359,4 mingta to‘lovchiga 100 foiz to‘liq avtomatlashtirildi. Shundan 121,6 mingta yoki 33,8 foizi hisobotlarga mustaqil ravishda o‘zgartirish kiritgan



Kelgusi hisobot yilidan stavkalarning unifikatsiya qilinishi natijasi bilan mavjud muammolar to‘liq bartaraf etilib, hisobotlar soliq organlari tomonidan shakllantirilishi nazarda tutilmoqda.

v) Elektron hisobvaraqt-faktura, onlayn nazorat kassa texnikasi, “marketpleys” tizimi ma’lumotlari hamda Davlat bojxona qo‘mitasi bilan real vaqt rejimida ma’lumot almashishni joriy etish orqali QQS hisoboti 156,3 mingta to‘lovchiga 100 foiz avtomatlashtirildi.

Ushbu soliq to‘lovchilardan 19,9 mingtasi (12,7%) hisobotlarga mustaqil o‘zgartirish kiritgan.

g) Mol-mulk solig‘i hisoboti ham Kadastr agentligi ma’lumotlari jamlanganligi hamda “E-imtiyoz” dasturi orqali to‘liq avtomatlashtirilgan holda respublika bo‘yicha 61,9 mingta to‘lovchiga 100,0 foizni tashkil etdi. Shundan 13,6 mingtasi (22%) taqdim etilgan hisobotlarga mustaqil ravishda o‘zgartirish kiritgan. Shuningdek, soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan 46 ta interaktiv xizmat turlari imkoniyati kengaytirilib, soliq to‘lovchilar 93,4 million marotaba foydalangan (jumladan 33,6 mln. marotaba soliqlarni to‘lashda). O‘zini o‘zi ish bilan band qilish bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tganlar soni 1,9 mln. nafarga etdi (joriy yilda ro‘yxatdan o‘tganlar soni 779 mingta).

Bundan tashqari. "Sizning soliq xizmatingiz" elektron xizmati foydalanuvchiga soliq organlarining istalgan viloyat, tuman yoki shahar bo‘linmasi to‘g‘risida ma’lumot olish imkoniyatini beradi. Ekranda aniq pochta manzili, elektron pochta manzili, navbatchi stansiya va trestning telefon raqamlari, rahbarlarning nomlari, fuqarolarni qabul qilish soatlari va kunlarini ko‘rish uchun ro‘yxatdan kerakli tuman yoki shaharni tanlash kifoya. "Sizning soliq xizmatingiz" xizmati xizmat ko‘rsatish va elektron raqamli imzoni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan mansabdar shaxslar to‘g‘risida ma’lumot va aloqa ma’lumotlarini olish imkonini beradi, zarur hollarda, ularga maslahat va tushuntirish uchun murojaat qilinadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Нормурзаев, У.(2022). Ҳукуматимиз томонидан солиқ маъмурчилиги бўйича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солиқ ислоҳотлари натижалари. Иқтисодиёт ва инновацон технологиялар, 10(5), 325–330.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st April, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35

3. Нормурзаев У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954